


AMALIY MASHG'ULOT-10

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi andazasini gazlamaga joylashtirish va gazlama sarfini hisoblash.

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish Qiz bolalar ko'ylaklari turli-tuman ko'rinishlarda bo'lib, ularning barchasida qulaylikka, sho'xchanlikka va chiroyli bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratiladi (39-rasm).

Quyida qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish keltirilgan (40-rasm). Ko'ylak etak qismiga kengaygan, yengi fonarik, bo'yin o'mizi bo'ylab yotadigan yoqa va taqilmasi ko'ylakning orqa bo'lagida joylashgan. Ko'ylakda aylana shaklda koketkalar bor bo'lib, ko'ylakni paxta tolali gazlamalardan tikish kerak.

Model chiziqlari quyidagicha kiritiladi. Ko'ylak old va ort asosi qog'ozga tushirib olinadi. Old va ort bo'lak o'rta chiziqlaridan koketkaning uzunligi belgilab olinadi. Uning uzunligini ko'p hollarda yelka uzunligiga tenglashtiriladi. Yelka nuqtalaridan pastga yeng o'mizi bo'ylab 3—4 sm qo'yiladi va koketkaning pastki qirqimi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Old va ort bo'lakdagi koketkaning pastki chiziqlari 4 bo'lakka bo'linadi. Bu nuqtalar orqali ko'ylakning etak chizig'i bilan kesishguncha chiziqlar o'tkaziladi. Bu kesish chizig'i hisoblanadi. Koketka qismi qirqib olinadi. Shu chiziqlar orqali etak qismi koketka chizig'iga 0,1—0,3 sm yetmasdan qirqiladi va har bir bo'lak orasi 4—6 sm ga kengaytiriladi.



40-rasm. Qiz bolalar ko‘ylagini modellashtirish.

Modellashtirish natijasida quyidagi detallar hosil bo‘ldi:

- 1 — ort etak qismi;
- 2 — old etak qismi;
- 3 — ko‘ylakning yengi;
- 4 — ort bo‘lak koketkasi;
- 5 — old bo‘lak koketkasi;
- 6 — ko‘ylak yoqasi.

Quyida qiz bolalar ko‘ylagini modellashtirish bo‘yicha namunalar keltirilgan.

Qiz bolalar ko'ylagini modellashtirish

asosga yangi chiziqlarni
kiritish

yeng asosiy chizmasi

